UO‘K 378.18

BO‘LAJAK INGILIZ TILI O‘QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA’LIMINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL QILISH

Rashidova Oynisa Xusniddin qizi,
Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti
aoynisaa@gmail.com

Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish masalasi yoritilgan. Umumiy pedagogika fani misolida talabalar mustaqil ta’limining mazmuni, samaradorligini oshirish omillari hamda innovatsion metod va texnologiyalarning o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, refleksiya ko‘nikmalari va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida talabalarning mustaqil ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish va o‘z o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilingan topshiriqlarning samaradorligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, integratsion yondashuv, texnologik yondashuv, CLIL yondashuvi, kreativ yondashuv, integratsion yondashuv.*

ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION OF FUTURE ENGLISH TEACHERS ON THE BASIS OF MODERN APPROACHES

This article discusses the issue of organizing the independent learning process of future English language teachers based on modern approaches. Using the example of general pedagogy, the content of students' independent learning, factors that increase its effectiveness, and the role of innovative methods and technologies are analyzed. Also, pedagogical approaches that serve to develop students' creative thinking, reflection skills, and digital competencies in organizing the independent learning process are analyzed. The results of the study show the effectiveness of tasks organized based on modern approaches in strengthening students' motivation for independent learning and forming self-control skills in the process of training English language teachers.

Keywords: *independent learning, future English language teacher, integrative approach, technological approach, CLIL approach, creative approach, integrative approach.*

ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ

В данной статье рассматривается вопрос организации процесса самостоятельного обучения будущих учителей английского языка на основе современных подходов. На примере общей педагогики анализируется содержание самостоятельного обучения студентов, факторы, повышающие его эффективность, и роль инновационных методов и технологий. Также анализируются педагогические подходы, способствующие развитию творческого мышления, навыков рефлексии и цифровых компетенций студентов при организации процесса самостоятельного обучения. Результаты исследования показывают эффективность заданий, организованных на основе современных подходов, в укреплении мотивации студентов к самостоятельному обучению и формировании навыков самоконтроля в процессе подготовки учителей английского языка.

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, будущий учитель английского языка, интегративный подход, технологический подход, подход CLIL, творческий подход, интегративный подход.*

Kirish. Hozirgi zamon talablariga binoan oliy o‘quv yurtlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri jahon ta’lim standartlariga javob bera oladigan bilimli, zukko va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Bu vazifani amalga oshirishda talabalar mustaqil ta’limini to‘g‘ri tashkil etish muhim omil hisoblanadi. Shu sababli oliy ta’lim tizimida mustaqil ta’limni tizimli tashkil qilish masalasiga ko‘plab e’tibor qaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasining 3-bobi (“Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari”) 1-§ida (“Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish”) mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda tizimli tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan [1]. Bu bandda ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanligini, izlanuvchanligini va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o‘qitish va pedagoglarning bilim sifatini oshirish ham pedagogik tizimning ustuvor vazifalaridan biridir. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mustaqil ta’limi ularning kasbiy tayyorgarligini ta’minlabgina qolmay, zamonaviy ta’lim jarayonida erkin fikrlaydigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan pedagogik shaxsni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Mustaqil ta’lim talabalarga o‘quv faoliyatini rejalashtirish, bilimlarni mustahkamlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda umumiy pedagogika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlar, ayniqsa talabaga yo‘naltirilgan yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Bu esa bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim faoliyatini takomillashtirish uchun zarur pedagogik sharoit yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Mustaqil ta’limni yo‘lga qo‘yish va talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muammosi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, M.A. Tursunaliyeva talabalarning mustaqil faoliyatini jadallashtirishda pedagogik shart-sharoitlarning muhim o‘rin tutishini ilmiy asoslaydi va o‘qituvchi boshqaruvidagi mustaqil ishlarning yuqori samaradorligini ko‘rsatib beradi [2, 25]. X.A. Shayxova ta’lim jarayoniga integrativ va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligini qayd etadi [3, 56]. N.B. Rejapova CLIL texnologiyasining ko‘p tilli ta’lim tizimidagi o‘rnini yoritib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda bu yondashuvning ahamiyatini ochib beradi [4, 101]. Muallif CLILni lingvistik va kasbiy kompetensiyalarni parallel rivojlantiruvchi samarali model sifatida baholaydi. Sh.N. Muslimov va Ch.S. Lutfullayeva integratsion yondashuvning mohiyati va nazariy asoslarini tahlil qilib, fanlararo integratsiya ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ko‘rsatadi [5, 136]. Ularning fikricha, integratsion yondashuv talabalarning tizimli fikrlashini shakllantirishga va kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, u o‘quvchilarning kreativ fikrlashini ham rivojlantiradi [6, 112]. S. Xo‘jjiyev va D. Axadova tadqiqotlarida o‘qituvchining innovatsion faoliyatida akmeologik yondashuvning o‘rni yoritilgan, pedagogning kasbiy yetuklikka erishishida shaxsiy va kasbiy o‘sish omillarining muhimligi ta’kidlangan [7, 1531].

Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud ilmiy manbalarda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilariga umumiy pedagogika fanini o‘qitish jarayonida mustaqil ta’limni zamonaviy yondashuvlar asosida tizimli va kompleks tashkil etish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Ushbu tadqiqot mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilariga umumiy pedagogika fanini o‘qitishda mustaqil ta’limni tashkil qilishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanishga va shu asosda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqotda turli metodlardan tizimli foydalanildi.

Avvalo, kuzatish va nazariy tahlil metodlari qo‘llanildi. Kuzatish orqali ingliz tili yo‘nalishi talabalari uchun umumiy pedagogika fanidan tashkil qilinayotgan mustaqil ta’limdagi mavjud yondashuvlar aniqlandi. Nazariy tahlil orqali tadqiqotchilarning (M.A. Tursunaliyeva, X.A. Shayxova, S. Xo‘jjiyev, D. Axadova, B.N. Qurbonov, Sh.N. Muslimov, Ch.S. Lutfullayeva, N.B. Rejapova) mavzuga oid ishlari tahlil qilindi. Ular o‘z tadqiqotlarida o‘quv jarayonida CLIL va boshqa zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni o‘rganganlar.

Taqqoslash metodi asosida mualliflar taklif etgan yondashuvlar o‘zaro solishtirildi. Bunda kreativ va innovatsion yondashuvlarning asosiy maqsadi deyarli bir xil ekanligi hisobga olinib, maqolada faqat kreativ yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi.


Tasniflash va tizimlashtirish metodlari orqali mustaqil ta’limni tashkil qilishda qo‘llanishi zarur bo‘lgan zamonaviy yondashuvlar turlari aniqlandi. Ularning afzalliklari, e’tibor talab qiladigan jihatlari hamda talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni tizimli aniqlandi.

Me’yoriy-huquqiy va dasturiy hujjatlarni tahlil qilish metodi yordamida tadqiqot oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga mo‘ljallangan nizom va qarorlarda belgilangan bandlarning ijrosini ta’minlashga xizmat qilishi aniqlandi.

Oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish, ijodiy faoliyatga qiziqishini shakllantirish, tadqiqot yoki uslubiy faoliyat bilan shug‘ullanishga zamin yaratish, o‘quv

faoliyatida mustaqillik va kreativlikni shakllantirish, shuningdek ongli tushunish hamda mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash va yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi jarayondir. Demak, mustaqil ta’limning zamonaviy yondashuvlar asosida to‘g‘ri tashkil etilishi nafaqat o‘quv faoliyatida, balki o‘z ustida mustaqil ishlash jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tili yo‘nalishi talabalariga umumiy pedagogika fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlarini boshqa yo‘nalishlarga nisbatan zamonaviy yondashuvlarda ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Chunki ular ingliz tilini biladi va mustaqil ta’lim jarayonida ingliz tilidagi adabiyotlarni ham erkin tahlil qila oladi. Bunda umumiy pedagogika fani o‘qituvchisidan ham ingliz tilini bilish talab etiladi. Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti sharoitida ingliz tili yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’limini quyidagi yondashuvlar asosida tashkil qilish ularning mustaqil va ijodiy fikrlashini hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Umumiy pedagogika fanidan ingiliz tili yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’limini tashkil qilishdagi zamonaviy yondashuvlar

CLIL yondashuvi. CLIL (Content and Language Integrated Learning) – mazmunni (pedagogikani) o‘qitish bilan ingliz tilini o‘rgatishni integratsiyalashgan holda olib borish yondashuvidir. Bu yondashuv ingliz tili yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’lim topshiriqlarini samarali tashkil etishda qulay metodik imkoniyatlar yaratadi.

Umumiy pedagogika fanida CLILni qo‘llash talabaning pedagogik tushunchalarni ingliz tilida o‘rganishi, tahlil qilishi va qo‘llashini anglatadi. Mustaqil ta’lim topshiriqlarining mazmuni ikki maqsadga xizmat qiladi:

1.pedagogik bilimni chuqurlashtirish;

2.ingliz tilini amaliy qo‘llash va rivojlantirish.

Bu yondashuv talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirib, o‘qituvchining kasbiy sifatlarini ham boyitadi va o‘z ustida ishlashga undaydi. CLILni tatbiq etish 4K modeli tamoyillariga tayanadi. CLIL talabalarga nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki tildan axborotni qabul qilish va uzatish vositasi sifatida foydalanib, kasbiy sohadagi bilimlarini chuqurlashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuvda o‘quv predmeti ham, chet tili ham bir vaqtda o‘rganiladi, chet tili esa boshqa fanlarni o‘rganish vositasi sifatida qaraladi.

Integratsion yondashuv. Integratsion yondashuv muayyan fanlar o‘rtasidagi aloqalarni sifatli va mazmunli bog‘lashni, fandan ko‘zlangan maqsadga yuqori darajada erishishni hamda fanlararo bilimlarni chuqurlashtirishni maqsad qiladi. Sh.N. Muslimov va Ch.S. Lutfullayeva integratsiyani psixologik, pedagogik va falsafiy jihatlardan o‘rganib, uning ta’limda ikki xil qo‘llanilishini ta’kidlaydi [5]. Birinchisi – ta’lim turlari (bo‘g‘inlari) orasidagi integratsiya: bunda ta’limning keyingi turi mazmuni avvalgisini qisman takrorlab, mazmunan uzviy bog‘langan holda davom etadi. Ikkinchisi – o‘quv fanlari orasidagi integratsiya: u odatda fanlararo yoki predmetlararo bog‘lanish orqali amalga oshiriladi. Bundan kelib chiqib aytish

mumkinki, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini integratsion yondashuv asosida tashkil qilish ikkinchi turga kiradi. Asosiysi, mustaqil ta’lim tashkil qilinayotganda ingliz tili fanidan maktab darsliklaridagi topshiriqlarni ham integratsiyalash jarayoniga kiritish lozim.

Texnologik yondashuv. Zamonaviy texnologik yondashuv pedagogik jarayonga kuchli ta’sir etuvchi eng so‘nggi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, ta’lim platformalarini va dasturlarni o‘quv jarayoniga joriy etishni nazarda tutadi va jarayonning samaradorligi, yaxlitligi hamda muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Biz yashayotgan XXI asr – axborot texnologiyalari davri. Hayotimizni ularsiz tasavvur qilish va rivojlantirish mumkin emas. Shu sababli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to‘g‘ri maqsadda va unumli foydalanish uchun avvalo bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida, so‘ngra ular orqali o‘quvchilarda kompyuter savodxonligini hamda turli ta’lim platformalari va dasturlaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish zarur. Shu maqsadda tadqiqotda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etishning muhim xususiyatlari va bosqichlari yoritiladi.

Kreativ yondashuv. Kreativ yondashuv ta’lim oluvchilarni faollashtiradi, ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga va muammoga optimal yechim tanlashga o‘rgatadi hamda ta’lim oluvchining rivojlanishini markazga qo‘yadi. U shuningdek, talabaning turli ta’lim metodlari asosida vazifa va maqsadlarni ongli qo‘yishi, o‘z faoliyatini rejalashtirishi, amalga oshirishi va o‘zini baholay olishi bilan ifodalanadi [8, 130]. Bundan kelib chiqadiki, kreativ yondashuv asosida tashkil qilingan mustaqil ta’lim talabani o‘z ustida mustaqil ishlashga, ijodkorlikka va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga undaydi, uning kasbiy rivojlanishiga yordam beradi, olgan bilimlarini boyitadi va mustahkamlaydi, mustaqil va tanqidiy fikrlashga chorlaydi. Bu jarayonda talaba markaziy o‘rinda turadi va o‘qituvchi rahbarligida mustaqil ishlaydi, butun jarayonda faol ishtirok etadi. O‘qituvchi esa uni faol qatnashishga undaydi.

Akmeologik yondashuv. Akmeologik yondashuv izchillik, ya’ni mukammallik cho‘qqisiga intilishni anglatadi. Bu intilish inson hayotining ajralmas xususiyati bo‘lib, shaxsiy va kasbiy rivojlanishga hamda o‘z-o‘zini takomillashtirishga moyillikni bildiradi. Shu bilan birga, bu talabalarda fikrlash va xulq-atvorni tanlash erkinligini, o‘z qobiliyatiga ishonchni, texnik, ta’limiy va yuqori madaniy darajaga erishish kabi keng dunyoqarashni rivojlantirish jarayonidir.

Akmeologiya (akme) yunoncha so‘z bo‘lib, “oliy nuqta”, “o‘tkir”, “gullagan, yetuk”, “eng yaxshi davr” ma’nolarini bildiradi. X. Shayxova shunday yozadi: “Akmeologiya – zamonaviy yangi fan. Uning muhim vazifasi muayyan kasb-korning yuksak pog‘onaga ko‘tarilishidagi turli jihatlarini o‘rganishdir. Akmeologiyaning mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas’uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o‘rganishdan iborat” [9, 110]. Bundan ko‘rinadiki, akmeologik yondashuv asosida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish – eng so‘nggi axborot texnologiyalarini, xalqaro tajribada sinalgan o‘qitish texnologiyalarini hamda talabani mustaqil va ijodiy fikrlashga undovchi interaktiv metod, vosita va usullarni muayyan fan mustaqil ta’limiga integratsiya qilish jarayonidir. Bu esa o‘qituvchining o‘zi ham akme shaxs bo‘lishini taqozo etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv. Kompetensiyaviy yondashuv talabaning faqat bilimini emas, balki uni amalda qo‘llay olish qobiliyatini, kasbiy ko‘nikmalarini, ijtimoiy faolligini va shaxsiy mas’uliyatini shakllantirishga qaratilgan [10, 128]. U bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda, ayniqsa umumiy pedagogika fanidagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvda topshiriqlar shunchaki matn o‘qish yoki savollarga javob berishdan iborat bo‘lmaydi, balki ko‘nikma, malaka va faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limning ahamiyati katta. Umumiy pedagogika fanidan beriladigan mustaqil ishlar turli metodik yondashuvlar asosida tashkil etilsa, talabalarning kasbiy, til, intellektual va shaxsiy sifatlarini har tomonlama rivojlantirish imkoniyati sezilarli ortadi. CLIL, integratsion, kreativ, texnologik, akmeologik va kompetensiyaviy yondashuvlar talabalarning mustaqil ishlarni bajarish jarayonida turli malakalarni egallashiga xizmat qiladi. Ular o‘zaro uyg‘unlashganda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini to‘liq shakllantiradi.

CLIL, integratsion, kreativ, texnologik, akmeologik va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida umumiy pedagogika fanidan tashkil qilingan mustaqil ishlarning ingliz tili yo‘nalishi talabalari uchun afzalliklari:

- ingliz tilida pedagogik mazmunni o‘rganish natijasida til va mazmun birgalikda rivojlanadi;
- talaba pedagogik terminlarni ingliz tilida o‘zlashtiradi;

- tahlil qilish, sharhlash, taqdimot qilish kabi kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi;
- xalqaro ilmiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmasi ortadi;
- talabalarda ijodkorlik, divergent fikrlash va yangi g‘oyalar yaratish qobiliyati rivojlanadi;
- mustaqil ishlarga qiziqish va talabalar faolligi ortadi;
- masalalarga nostandart yondashuv shakllanadi;
- talabalar o‘z yechimlarini (poster, video, loyiha, esse shaklida) ishlab chiqadi;
- talabaning raqamli kompetensiyasi rivojlanadi;
- talabalar zamonaviy raqamli vositalarda (Google Classroom, Quizlet, Kahoot, Moodle) ishlashni o‘rganadi;
- talabada kasbiy o‘zini rivojlantirish va o‘ziga talabchanlik paydo bo‘ladi;
- mas’uliyat, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zini rivojlantirish refleksiyasi kuchayadi;
- bo‘lajak o‘qituvchi sifatida o‘zlikni anglash shakllanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Umumiy pedagogika fani bu jarayonning nazariy asoslarini yaratadi, zamonaviy texnologiyalar esa mustaqil ta’limni amaliy jihatdan boyitadi.

Zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, muammoga optimal yechim topishi, xorijiy til kompetensiyasi, kasbiy mas’uliyati va o‘zini o‘zi tashkil etish ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019-yildagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Tursunaliyeva M.A. O‘zbekiston umumta’lim maktablarida clil yondashuvi: o‘quv natijalarini baholash va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konfrensiyasi, Volume 3, issue 50, 99-103.

3. Shayxova X.A. Ma’naviyat — kamolot ko‘zgusi. — T.: G ‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2009. 115b.

4. Rejapova, N. B. CLIL technology in multilingual education and training of competitive personnel. In American Journal of Philological Sciences: Vol. Vol.05–Issue02 (pp. 101–103). https://doi.org/10.37547/ajps/Volume05Issue02-29

5. Muslimov Sh.N. va CH.S. Lutfullayevalar, “ Integratsion yondashuv mohiyati va nazariy jihatdan tahlili”, Innovative Development in Educational Activities jurnali, ISSN: 2181-3523, VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2023, 134-141.

6. Rashidova O. “The use of innovative methods and tools in the organization of independent education in higher educational institutions as a pedagogical problem” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science, volume 3, issue 10, 2023, 261-270.

7. Xo‘jjiyev S va Axadova D, “O‘qituvchining innovatsion faoliyatda akmeologik yondashuvning o‘rni”, “Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar” nomli xalqaro konfrensiya to‘plami, 2022, 1530-1533.

8. Qurbonov B.N. “Didactic possibilities of organizing independent education based on a creative approach in higher education institutions" Journal of Social Management. 2023 yil. 123-145.

9. O. K. Rashidova, D. Begmatova and A. E. Rashidov, "AI-assisted Independent Learning Model in Education of Industry 4.0," 2026 International Russian Smart Industry Conference (SmartIndustryCon), Sochi, Russian Federation, 2026, pp. 308-313, doi: 10.1109/SmartIndustryCon68821.2026.11493025.

10.Rashidova O. (2024). Use of innovative methods and tools in organizing independent education in higher education countries - as a pedagogical problem. Fan va ta’lim integratsiyasi (integration of science and education), 1(2), 84–93.